

1-Mavzu. Natural va butun sonlar.

1. $32 : 8 : 4 + 1218 : (1866 - 24 \cdot 27)$ ni hisoblang.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4
2. Ifodaning qiymatini toping: $18 \cdot 36 - 16 \cdot 36 + 24 \cdot 27 - 25 \cdot 24 - 21 \cdot 5$
A) 45 B) 1 C) 0 D) 15
3. Hisoblang: $2018 \cdot 2020 - 2017 \cdot 2019$
A) 4027 B) 4029 C) 4037 D) 4047
4. Eng katta bir xonali songa eng katta ikki xonali sonni necha marta qo'shilsa, eng katta uch xonali son hosil bo'ladi?
A) 10 B) 11 C) 15 D) 20
5. Vali 12000 so'm puliga 700 so'mlik ruchkadan ko'pi bilan nechta olishi mumkin?
A) 17 B) 16 C) 18 D) 15
6. Faqat tub sonlar berilgan javobni toping.
A) 2,3,19,51 B) 7,13,23,33 C) 5,23,89,97 D) 61,67,69,71
7. 1 dan 1000 gacha bo'lgan sonlar orasida 7 ga qolsiqsiz bo'linadigan natural sonlar nechta?
A) 142 B) 143 C) 144 D) 145
8. 27, 45 va 36 ning EKUK ini toping.
A) 270 B) 540 C) 810 D) 135
9. O'zaro tub sonlar jufti qaysi javobda berilgan?
A) (70;49) B) (32;80) C) (41;82) D) (41;81)
10. 45 va 36 ning umumiy natural bo'luvchilar sonini toping.
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5
11. 60, 80 va 160 ning umumiy natural bo'luvchilar sonini toping.
A) 4 B) 5 C) 6 D) 7
12. Oxirgi raqamini toping:
$$2^{2015} - 3^{2016} + 7^{2014}$$

A) 8 B) 9 C) 6 D) 4
13. 12345678^{2018} ning oxirgi raqamini toping.
A) 2 B) 6 C) 8 D) 4

14. Besh xonali $\overline{2x78y}$ son 72 ga qoldiqsiz bo‘linadi. $y \cdot (x - 3)$ ni hisoblang.
A) 15 B) 12 C) 6 D) 24
15. 16200 ning natural bo‘luvchilari nechta?
A) 48 B) 80 C) 60 D) 72
16. 96 ning barcha natural bo‘luvchilari yig‘indisini toping.
A) 254 B) 252 C) 200 D) 248
17. 72 va 96 sonlarining eng kichik umumiy karralisining eng katta umumiy bo‘luvchisiga nisbatini toping.
A) 24 B) 6 C) 12 D) 8
18. $3 \cdot 470$ yozuvidagi yulduzcha o‘rniga shunday raqam qo‘yingki, hosil bo‘lgan son 9 ga qoldiqsiz bo‘linsin.
A) 4 B) 5 C) 0 D) 6
19. 6 ni berilgan songa ko‘paytirganda, hosil bo‘lgan son . . . 14 ko‘rinishda bo‘lsa, berilgan son quyidagilardan qaysi biri ko‘rinishida bo‘lishi mumkin?
A) . . . 24 B) . . . 19 C) . . . 79 D) . . . 14
20. $(-1)^{13} - (-1)^{15} - (-1)^{17}$ ni hisoblang.
A) -1 B) 1 C) -3 D) 3
21. Hisoblang: $-(-(+11)) + (-(-7))$
A) -4 B) 4 C) -18 D) 18
22. Hisoblang: $|-200| + |-76| - |23|$.
A) 300 B) 299 C) 255 D) 253
23. $(557 + 796 - (357 - 204)) : (835 - 398 - (135 - 98))$ ni hisoblang.
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4
24. Hisoblang: $126 \cdot 428 + 172 \cdot 172 + 174 \cdot 428 + 128 \cdot 172$
A) 150000 B) 18000 C) 16000 D) 180000
25. O‘qituvchi sinf xonasiga 93 ta daftar olib keldi va ularni har bir o‘quvchiga bir xil sondan qilib tarqatib chiqdi. Sinf xonasida nechta o‘quvchi borligini va har bir o‘quvchi nechtadan daftar olganini aniqlang.
A) 3 ta o‘quvchi har biri 30 tadan daftar olishgan
B) 31 ta o‘quvchi har biri 3 tadan daftar olishgan
C) 30 ta o‘quvchi har biri 3 tadan daftar olishgan
D) 27 ta o‘quvchi har biri 4 tadan daftar olishgan

26. 60, 80 va 160 ning EKUK ini toping.
A) 480 B) 120 C) 240 D) 400
27. 10 dan 1000 gacha bo'lgan sonlar orasida 7 ga qoldiqsiz bo'linadigan natural sonlar nechta?
A) 142 B) 141 C) 140 D) 139
28. 90 va 72 ning umumiy bo'luvchilar sonini toping.
A) 6 B) 7 C) 5 D) 4
29. 27, 45 va 36 ning umumiy bo'luvchilar sonini toping.
A) 3 B) 4 C) 5 D) 6
30. 1440 sonini qoldiqsiz bo'luvchi natural sonlar yig'indisini toping.
A) 5225 B) 4914 C) 2317 D) 198
31. 9, 10, 22 va 25 sonlari orasida nechta o'zaro tub sonlar jufti bor?
A) 4 B) 3 C) 2 D) 1
32. Ushbu 3664^* besh xonali son 36 ga karrali bo'lsa yulduzchaning o'rniga qaysi raqamni qo'yish mumkin?
A) 2 B) 4 C) 6 D) 8
33. 18000 ning natural bo'luvchilari nechta?
A) 45 B) 24 C) 60 D) 50
34. Qulay usul bilan hisoblang: $20011 \cdot 20014 - 20012 \cdot 20013$
A) -2 B) 2 C) 8 D) 20000
35. Yig'indini hisoblang:
$$|-5| + |7| + |-9| + |11| + |-13| + |15| + |-17| + |19|$$

A) 96 B) 100 C) 95 D) 99
36. Hisoblang: $|901| + |-252| - |323|$.
A) 850 B) 956 C) 830 D) 1476
37. $(-1)^{100} + (-1)^{105} - (-1)^{113}$ ni hisoblang.
A) -1 B) 1 C) -3 D) 3
38. $3^{11} + 5^{13}$ sonning eng kichik tub bo'luvchisini toping.
A) 2 B) 3 C) 7 D) 11

39. Oxirgi raqamini toping:

$$7^{2020} - 5^{2019} + 3^{2022}$$

A) 1 B) 3 C) 5 D) 7

40. Dastlabki 99 ta natural sonlar: 1, 2, 3,4,...,97, 98, 99 kabi yozildi. Vergullar o'chirildi. Natijada ko'p xonali son hosil bo'ldi. Shu sonda nechta raqam bor?

A) 99 B) 100 C) 190 D) 189

41. Ifodaning qiymatini toping: EKUK(12;18;36)+EKUB(39;52)

A) 49 B) 50 C) 48 D) 72

42. Ushbu $2^7 \cdot 5^3 + 3 \cdot 2^{10} \cdot 5^3$ son nechta nol bilan tugaydi?

A) 3 B) 4 C) 5 D) 6

43. Ushbu $7^5 \cdot 5^3 \cdot 23 - 18 \cdot 5^3 \cdot 7^5$ sonning nechta natural bo'luvchilari bor?

A) 30 B) 20 C) 42 D) 28

44. Hisoblang: $-(-(+2)) - (-(-2))$

A) 2 B) 4 C) 0 D) -4

Javoblar

1.	B	16.	B	31.	A
2.	D	17.	C	32.	D
3.	C	18.	A	33.	C
4.	A	19.	B	34.	A
5.	A	20.	B	35.	A
6.	C	21.	D	36.	C
7.	A	22.	D	37.	B
8.	B	23.	C	38.	A
9.	D	24.	D	39.	C
10.	B	25.	B	40.	D
11.	C	26.	A	41.	A
12.	C	27.	B	42.	C
13.	D	28.	A	43.	A
14.	B	29.	A	44.	C
15.	C	30.	B	45.	